



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION RIVOJLANISH  
VAZIRLIGI

# “БАШАРИЯТ МАЊАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОЙЙ МЕРОСИННИГ АҲАМИЯТИ”

мавзусидаги республика онлайн  
илмий-амалий анжумани  
**МАТЕРИАЛЛАРИ**

5 февраль 2021 йил  
Бухоро



*Alisher  
Navoiy*  
580



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ  
ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР  
ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ  
МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ**

мавзудаги республика онлайн илмий-амалий конференция

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021 йил 5 февраль. Бухоро

uchun ham, chopqir, oq va qora otlarga o'xshatilgan. Bu esa tashbeh san'atini keltirib chiqargan.

Yo'q edi odamiki bor etting,  
Kishilik birla e'tibor etting.

Na ko'kda van a yerda odamzotdan hech qanday asar yo'q edi. Ammo sen (Allohga murojaat) odamzotni yaratding. Unga shakl-shamoyil, oyoq-qo'l, ko'z-qosh, aql, shodlik va qayg'uni his etuvchi yurak ham berding. Oxirida esa bu jonsiz tanaga ruh ya'ni jon kiritding. Insonni loydan yasading. Buning uchun tuproqqa o'ttiz to'qqiz kun ga'm-qayg'u yomg'irini, bir kun shodlik yomg'irini yog'dirding. Shu tariqa yer yuzida kishilik jamiyatini paydo qilding, deydi.

Shoir "Sabbai Sayyor" dostonidagi hamd qismida Allohnинг sha'niga qancha ash'oru dostonlar bitsa ham, ozlik qilishi uning maqtovida qalami ojiz ekanligini aytib, insoniyatga so'zlash, nutq irod etish qobiliyatini ham aslida Allah tomonidan berilganligiga ishora qiladi. Dastlab yer yuzida barcha narsa nihon bo'lgani, ularning bari Allohnинг qudrati sababligina hayot nafasini ola boshlagani aytib o'tilgan. Ya'ni insonga jism ham Allah tomonidan berilgan, ammo bu jism bo'm-bo'sh faqat shaklga ega ekanligi aytilib, bu jismning ichiga avval ko'ngilni, keyin aqlni joylashtirgani haqidagi fikrlar keltirilgan. Dostondagi hamd qism doston mazmuniga bog'liq holda yaratilgan. Ayni jihatni "Xamsa" tarkibidagi barcha dostonlarda ko'rish mumkin.

## **ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI**

*Hilola Safarova*

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent (BuxDU)

*Mohigul Ismatova,*

II kurs magistranti (BuxDU)

"Farhod va Shirin" dostonidagi barcha obrazlar bir-birini takrorlamaydi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy har bir obrazni tasvirlashda uning ichki va tashqi dunyosini uzviylikda tasvirlashga harakat qilgan. Farhod qiyofasini belgilovchi alomatlardan biri uning ma'naviy salohiyatidir. Hayotga faol qarash, insonparvarlik, loqayd odamlarga nisbatan nafrat Farhodni o'quvchi ko'zi o'ngida yuksak maslak egasi sifatida tanitadi. Alisher Navoiy xarakter yaratishda katta mahorat ko'rsatadi. Farhod, Shirin, Mehinbonu, Xisrav kabi obrazlarni o'quvchi ko'pincha ruhiy olamidagi o'ziga xos tomonlariga qarab ajratadi. Alisher Navoiy xarakterlarni detallar yordamida ochishga alohida ahamiyat beradi. Masalan, Farhodning aqliligini, zakovatini uning nutq detallaridan juda tez payqab olish mumkin. Xusrav esa o'taketgan mag'rur. U "agar Farhod po'lat tog' bo'lganda

ham uni bir so'z bilan qulataman” [3,142] deb maqtanadi. Shirin oqila, muloyim, mehribon va sevgisiga sadoqat timsoli. Mehinbonu esa xalqni to'g'ri yo'lga boshlovchi, xalqparvar, o'z ishining ustasi va mehribon ona qiyofasida gavdalangan.

Dostonda Farhodning qilichi, gurzisi, nayzasi, kiyimi, oti tasviri kelajakda uning bahodir, pahlavon yigit bo'lib yetishuvidan darak beruvchi detallardir. Farhod teshasi uning tosh yo'nar ustaligini, mardligini, mehnatsevarligini ko'rsatuvchi predmet detali. Bu detal butun qissa davomida tilga olinadi va markaziy qahramonni xarakterlashda muhim o`ringa ega.

Alisher Navoiyning qiyofa chizish mahorati ham alohida ahamiyatga ega. Shoir dastlab qahramon timsoli bilan qiyofa uyg'unligiga e'tibor beradi. Qahramonning tashqi tasviri orqali ham uning ichki dunyosini oydinlashtirishga, individual xususiyatlarini belgilashga, hech bo'lmasa obrazning biror muhim tomonini chertib o'tishga erishadi.

Dostonda Farhodning tug'ilishi va uning o'quvchi ko'zi o'ngida ulg'ayib borishi romantik tasvir bo'lsa-da, o'quvchini ishontiradi.

Farhod hamisha o'z maqsadlarining aniqligi, kuchli ehtirosi va cheksiz matonati bilan ajralib turadi. Bu badiiy qiyofani tasavvur qilishda qo'llangan muhim vositalardan biridir. Navoiy Farhodning o'zigagina xos bo'lgan odatlar: uning yoshlikdan hissiyotga berilganligi, kishilar oldida o'zini past tutishi, kichik yoshdan atrofdagilarning qalbini his etib, ularga to'g'ri munosabatda bo'lishi, xususan, dardlilarga hamdamligini tasvirlash – demak, individual qiyofani gavdalantirish bilan ham obrazni o'quvchiga yaqinlashtiradi. Navoiy Farhod obrazini yaratishda ko'pgina Sharq eposlariga xos bo'lgan ayrim an'analarni ham singdirib o'tadi. Qahramon tug'ilishidan boshlab bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, obrazdagi o'zgarish, o'sish biologik balog'at bilan o'lchanadi. Masalan, Farhodning uch yoshidagi aqli, fe'l-atvori o'n yoshli bolalarga o'xshardi, o'n yoshida esa qaddi, jismi va qudrati yigirma yoshga to'lgan yigitlarni eslatardi. Qahramon tug'ilgan kuni manglayida ayon bo'lgan alomatlar ta'siri ostida o'sadi. Masalan, Farhod tug'ilganda uning yuzida ishqning sirlari yozilgan bo'lib, bag'riga dardning muqaddas so'zları bitilgan edi.

Navoiy Farhod obrazining takomilida tashqi muhit, hayot sharoitlarining ta'sirini ko'rsatishga harakat qiladi. Qasrlar qurilishida ishtirok etish, ustozlardan hunar o'rganish, Yunon safarida tilsimlarni ochish, Arman yurtida kanal qazish va Xusravga qarshi kurash jarayonida obraz o'sib, o'zgarib, o'zida yangi- yangi xususiyatlar paydo qila boradi. Farhod obrazining takomilida chuqur psixologik jarayon, qahramonning ichki olamidagi qarama-qarshiliklar kurashi o'rmini alohida e'tiborga molik. Farhod ota taxtini rad etib, atrofini qurshab olgan hayot sharoitiga ko'nikaolmay, bosh olib ketadi. Farhodning Xusrav bilan to'qnashgandan keyingi

hayoti ko'pincha ichki ziddiyatlar sharoitida kechadi. Farhodning Salosilga Xusrav tomonidan qo'yilgan soqchilar bilan munosabatdayoq obrazning muhim yangi belgisi ko'rindi. Shoir tasvirida ayrim qarama-qarshiliklar ham yo'q emas. Farhod o'ta hissiyotga berilganda faoliyati bir mucha sustlashib ketadi. Xusravni osongina oradan yo'q qilish paytlari kelganda ham hissiyotlar doirasida qolgan Farhod faol harakatga o'tmaydi. U hatto Xusravni oldida o'zini-o'zi kamsitadi. Farhoddagi soddadillik shu darajaga borib yetgan ediki, u Shirinning o'limi haqidagi xabarni eshitgach, bu gap rostmi-yolg'onmi, surishtirib ham o'tirmay, o'zini haloq qiladi.

Navoiy dostonda ba'zi o`rinlarda tashqi qiyofa tasviriga ham ahamiyat beradi. Lekin anashu tashqi qiyofadagi belgilar qahramonning ma'naviy dunyosiga nisbatan betaraf emasligini nazararimizdan qochirmasligimiz lozim.

“Farhod va Shirin” Navoiyning yuksak orzular zaminida yaratgan asari bo'lgani uchun unda tasvir ham orzular darajasidagi bo'yoqlar bilan jilo topgan. Bu hol Navoiyning nihoyatda yetuk san'atkor ekanligini ko'z-ko'z qilib turuvchi diqqatga sazovor o`rinlardan biridir” [2, 34]. Doston tili bilan tanishgan o'quvchi unda obrazning tasavvur dunyosi, ularning rivojlanish jarayonida duch kelgan voqeа va hodisalarning asl mohiyatini oydinlashtirishga, mazmun va shakl o'rtasidagi mutanosiblikni izchil saqlashga alohida e'tibor berilganligini ko'radi.

Navoiydek buyuk mutafakkirning g'oyalari, fikrlari, har bir so'zi salmoqli. Shu bois bugungi kun yoshlari va zamondoshlarimizga uning yetuk, qimmatli merosini o'z holicha yetkazmoq sharaflı burchimiz hisoblanadi. Ushbu mas'uliyatni his etgan holda Alisher Navoiyning ijodiy merosini o'rganishga jiddiy yondashish lozimligini har birimiz unutmasligimiz lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiyning. To'la asarlar to'plami, X tomlik. 6-tom. – Toshkent: G'afurG'ulom, 2012.
2. Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. – Тошкент: "Фан", 1992, 134-бет.
3. Қаюмов А. “Фарҳод ва Ширин” сирлари. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. - 167 б.

### **“HIRIY JON, BADANDIR XUROSON ANGA...”**

*Sayliyeva Zarina,  
BuxDU o'qituvchisi*

Navoiy uchun kenglik **Hirotdan** boshlangan. Shoir ruhida tug'yon urgan **vatanparvarlik** tuyg'ularining sarmanzili ham beqiyos Hirot edi. Navoiygacha Vatanni turli shaklda ta'riflaganlar bor. Ammo Navoiy o'z asarlarida vatan va

<i>Murodova Gulchehra</i> “HAYRAT UL ABROR” DOSTONIDAGI SO’Z TA’RIFI BOBI NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI....	68
<i>Шоҳиста Низомова Алишер</i> НАВОЙЙ ШЕЪРИЯТИДА СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗИНинг ИФОДАЛАНИШИ..	71
<i>G. S.Omarova, M. R. Bozorbayeva</i> “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUALLIF DADIY NIYATINING IFODALANISHI.....	76
<i>Ражабова Маърифат</i> САМАНДАР – АБАДИЙ ҲАЁТ ТИМСОЛИ.....	80
<i>Зулайҳо Раҳмонова Алишер</i> НАВОЙЙ ИЖОДИЁТИДА ТАВБА ТАЛҚИНЛАРИ...	84
<i>Sadullayeva Shahlo,Shamsiddinova Sitora</i> "LISON UT-TAYR" DOSTONIDA HAYRAT VA FAQR-U FANO VODIYLARINI TASVIRLASHDA TAMSILUY HIKOYATNING AHAMIYATI. ....	89
<i>Safarova Shahlola</i> “SABB’AI SAYYOR” DOSTONI HAMD BOBINING G`OYAVIY –BADIY TAHLILI....	94
<i>Hilola Safarova, Mohigul Ismatova</i> ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI.....	98
<i>Sayliyeva Zarina</i> “HIRIY JON, BADANDIR XUROSON ANGA...” .....	100
<i>G. Sayidova</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI O’XSHATISHLARNING TASNIFI...	104
<i>H. H. Тешаев Алишер</i> НАВОЙЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН МАҶНАВИЙ КАМОЛОТИ. ....	107
<i>Xudoyorova Nigora</i> NAVOIY NAZMINING JILOLARI.....	111
<i>Д.К.Эргашева</i> ПОЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ.....	113
<i>Ergasheva Naima</i> ALISHER NAVOIY G’AZALLARIDA TANOSUB SAN’ATI.....	118
<i>Хусниддин Эшонқулов</i> МАҶШУҚА ВА ОШИҚ ҲОЛИГА ХОС ИСТИОРАЛАШГАН ЭПИТЕТЛАРНИНГ ҚОФИЯЛАНИШИ.....	120
<i>G. Sh.Qobilova</i> “SAB’AI SAYYOR” DOSTONINING ILMIY-TANQIDIY MATNINI YARATISHDA ASOS BO’LGAN MANBALAR.....	124
<i>Дилрабо Қувватова, Зарнигор Соҳибова</i> Алишер НАВОЙЙ ВА ОГАҲИЙ ШЕЪРИЯТИДА БАҲОР ТАСВИРИНИНГ МУШТАРАК ЖИҲАТЛАРИ...	126
<i>Halimova Shahlo</i> ALISHER NAVOIY TARJE’BANDLARINING TASVIR MOHIYATI... .....	130
<i>HojiyevaNigina</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ..	133
<i>Azimjon Hamidov</i> ALISHER NAVOIY G’AZALLARI NASHRIDAGI AYRIM TAFOVUTLAR HAQIDA MULOHAZALAR.....	137
<i>Vaxobova Shoxida</i> “MUNSHAOT” MAKTUBLARIDA NAVOIY QARASHLARINING AKS ETISHI.....	140